

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

BOSH AYLANISHINI XALQ TABOBATIDA DAVOLASH USULLARI

Abdukarimova Farida Abdumalik qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmatsiya fakulteti talabasi

Abdugafforov Javohir Shuhrat o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash fakulteti talabasi

Annotatsiya: Bosh aylanishi – muvozanat buzilib, atrofdagi narsalar aylanayotgandek sezilishidir. Bunda bemorning ko'ngli aynib qusadi, qulog'i shang'illaydi, yaxshi eshitmaydi, rang o'zgaradi, tomir urishi susayadi, o'midan turganida aksari yiqilib tushadi. Sog'lom odam ham keskin harakat qilganida, masalan, o'ridan sakrab turganida aylanganida, paroxodda, transportda ketayotganida, juda balandda yurganida boshi aylanishi mumkin, bu fiziologik bosh aylanishi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Limono't, tibbiyot, tomir urishi, sabzi, yalpiz, bosh aylanishi.

Bosh aylanishi (vertigo) — atrofdagi fazoda o'z tanasining nazoratsiz harakatlanishi, tayanchning siljishi yoki ko'ruv zonasida joylashgan obyektlarning harakatlanishini his etish tuyg'usidir. Zamonaviy tibbiyot ilmiy asosda shakllanishi va rivojlanishi kasalliklarning oldini olish va davolash usullari asrlar moboynida takomillashuvi uchun xizmat qiladi. Muolajasi og'ir va bedavo xastaliklarni ham davolash, ayniqsa jarrohlik sohasida aql bovar qilmas muvaffaqiyatlarga erishayotgan zamonaviy tibbiyot uchun asl ma'noda tamal toshi bo'ldi. Xalq tabobati juda qadimiy tarixga ega bo'lib jamiyat tarraqiyotining barcha bosqichlarida hayotiy ehtiyojga aylanganidan dalolat beradi. Ana shu sharafli va mashaqqatli mas'uliyatni zimmalariga olgan payg'ambarlar, tabiblar, xalq tabobatining vakillari xatarli kasalliklarni oldini olishni dardiga shifo istab kelgan bemorga tashxis qo'yish va davolashni shunchaki tabiblik amaliyoti emas, balki o'zlarining muqaddas burchlari deb bilgan.

Xalq tabobatida kasallikni asosan mijozga qarab aniqlashgan, shunga ko'ra davo belgilangan. Bemorning mijoji tomir, til, ko'z, badan va axlat rangidan aniqlab olingach, shunga mos dori-darmonlar buyurilgan.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Bosh aylanishi – muvozanat buzilib, atrofdagi narsalar aylanayotgandek sezilishidir. Bunda bemorning ko'ngli aynib quсади, qulog'i shang'illaydi, yaxshi eshitmaydi, rang o'zgaradi, tomir urishi susayadi, o'rnidan turganida aksari yiqilib tushadi. Sog'lom odam ham keskin harakat qilganida, masalan, o'rnidan sakrab turganida aylanganida, paroxodda, transportda ketayotganida, juda balandda yurganida boshi aylanishi mumkin, bu fiziologik bosh aylanishi hisoblanadi.

Vestibulyar apparati (eshituv nervining muvozanat saqlovchi qismi) o'ta ta'sirchankishilarda bosh aylanishi ko'proq kuzatiladi. Bunday kishilar bolalik vaqtidayoq transportda yurganida, arg'imchoq uchganida juda balandda yurganida boshi aylanishi mumkin va o'zini yomon his kiladi. Gipertoniya, bosh miya tomirlari aterosklerozi, o'rta qulqasalliklari, shikastlanish, shuningdek, zaharlanish (alkogol, nikotin, is gazi va b) oqibatida ham bosh aylanishi mumkin. Bosh aylanish sababini aniqlash uchun bemorni shifokor sinchiklab tekshirishi va tegishli davo choralarini tavsiya etishi kerak. Bosh kuchli og'riganda bemor o'rinda yotishi va albatta, shifokor chaqirishi lozim.

Sabzi-sharbati ovqatdan yarim soat oldin yarim yoki bir stakandan kuniga 3-4 mahal ichilsa, bosh og'rig'i va aylanishiga shifo bo'ladi.

Sabzidan 3 qism, lavlagidan bir qism, anordan 2 qism olinadi. Sharbatlarini aralashtirib, ovqatdan 30 daqiqa oldin kuniga 3 mahal ichiladi. Bosh og'riganda va aylanganda davo bo'ladi.

Dengiz karamining tolqoni har kuni tushlikdan oldin bir choy qoshiqdan kappalab turilsa (so'lak bilan yutishi kerak), noma'lum sabablarga ko'ra bosh tez-tez aylanishiga foyda kiladi.

Limono'tdan 15 gramm olib, ustiga bir stakan qaynoq suv qo'yib, yarim soat o'rab damlab qo'yiladi. Kuniga 5-6 mahal bir-ikki osh qoshiqdan ichiladi. Bu damlama bosh og'rig'i, aylanishi, yurak tez urishi, qorin dam bo'lishi va uyqusizlikda davo buladi.

Limono't o'simligining ho'l yoki quruq bargidan bir osh qoshig'i ustiga bir stakan qaynoq suv qo'yib 30 daqiqa damlab qo'yiladi. Keyin choy kabi ichish lozim. Kuniga 5-6 mahal, 1-2 osh qoshiqdan ichilsa bosh aylanishiga shifo bo'ladi.

Limono't, igir ildizi va do'lana gulidan 100 gramm dan olib aralashtiriladi. 3 osh qoshig'ini kechqurun termosga solib, ustiga 3 stakan qaynoq suv quyiladi. Ertalab suzib olgach, kuniga 4 mahal ovqatdan yarim soat oldin, 150 grammdan ichiladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Limono't va oq omila o'tidan 100 grammidan olib aralashtiriladi. 2 osh qoshig'ini kechqurun termosga solib ustiga 2 stakan qaynoq suv quyiladi. Ertalab suzib olgach, kuniga 4 mahal ovqatdan 30 daqiqa oldin, yarim stakandan ichiladi.

Yalpiz, qizil qoncho'p va tog' rayxonidan 100 grammidan olib aralashtiriladi. Shu yig'madan bir osh qoshig'i ustiga yarim litr qaynoq suv qo'yib, yarim soat o'rab damlab qo'yiladi. Dokadan suzib olgach, bosh og'riganda kuniga bir stakandan ichiladi.

Mumiyodan 0,2-0,3 gram olib sut va asal bilan 1:20 nisbatda kuniga 2 mahal – nahorda va kechkurun uyqu oldindan 25 kun ichilsa, bosh og'rig'i va aylanishi qoladi. Kasallik o'tib ketgan bo'lsa, 40 kun tanaffus qilib, davolash davom ettiriladi.

Foydalanimilgan adabiyotlar:

- 1.Nortosh O'ljaboeva. Halq tabobati xazinasidan javoxirlar. Toshkent. "Yangi asr avlodii" 2009 yil
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/neurologiya/bosh-aylanishi/>
3. <https://tophit.uz/uz/article/656848-bosh-aylanishi-sabablari-va-davolash-usullari>
- 4.Gulomovna, S. X., Ergashboyevna, E. M., & Ergashboy, A. (2020). Range of measuring of base error of selective thermocatalytical sensor on methane. *European science review*, (1-2), 140-143.
- 5.Eshkobilova, M. E., Xodieva, N., & Abdurakhmanova, Z. E. (2023). Thermocatalytic and Semiconductor Sensors for Monitoring Gas Mixtures. *World Journal of Agriculture and Urbanization*, 2(6), 9-13.
- 6.Kholmirzayev, F. F., Eshkobilova, M. E., Urovov, D. M., & Abdurakhmanov, E. (2018). The influence of temperature on the sensitivity of a semiconductor methane sensor. In *Materials of the Republican conference "Development of analytical chemistry in Uzbekistan"*. Tashkent (pp. 78-81).
- 7.Эшкобилова, М. Э., Эгамов, У. Б. Ў., Толибов, А. А. Ў., Шукрова, Д. Б., & Абдурахмонов, Э. (2023). МЕТАННИ АНИҚЛОВЧИ ТЯГ-CH₄ ГАЗ АНАЛИЗATORИНИНГ МЕТРОЛОГИК ТАВСИФЛАРИГА ТУРЛИ ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *Research Focus*, 2(11), 17-22.
- 8.Eshkabilova, M., Abdurakhmanov, I. E., Muradova, Z., Abdurakhmanov, E., & Abdurakhmanova, Z. (2022, December). Development of selective gas sensors

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

using nanomaterials obtained by sol-gel process. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012155). IOP Publishing.

9.Er, A. I. (2022). STUDY OF REGULARITIES OF FORMATION SEMICONDUCTOR GAS-SENSITIVE FILMS BASED ON OXIDES OF METALLS TI, ZN AND W. *Universum: химия и биология*, (2-2 (92)), 43-46.

10.Abdurakhmanov, E., Eshkabilova, M. E., Muminova, N. I., Sidikova, K. G., & Pardaeva, S. M. (2022). Template Synthesis of Nanomaterials based on Titanium and Cadmium Oxides by the Sol-Gel Method, Study of their Possibility of Application As A Carbon Monoxide Sensor (II). *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1343-1350.

11.Эшкобилова, М. Э., & Насимов, А. М. (2019). Газоанализатор (тпг-сн4) для мониторинга метана на основе термокатализитических и полупроводниковых сенсоров. *Universum: химия и биология*, (6 (60)), 17-20.

12.Ergashboyevna, E. M., Gulomovna, S. X., & Ergashboy, A. (2019). Selective thermocatalytic sensor for natural gas monitoring. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (9-10), 49-51.